

An'analar davom etmoqda

Yurtimizda ta'lif sohasida olib borilayotgan islohotlar bizning institutimizda ham o'z aksini topmoqda. Hurmatli rektorimiz Umurzakov O'ktam Pardayevich boshchiligidagi izchil olib borilayotgan ishlarning samarasini o'laroq, bu yil institutimiz tarixida birinchi marta Gidravlika fanidan uch nafar talabamiz sovrinli o'rirlarni egalladilar. Pandemiya sharoitida o'qishni onlayn tashkil etish, MOODLE tizimidan samarali foydalananish, talabalarga ZOOM dasturi orqali dars o'tish o'z samarasini berdi. Institutimizning ko'p sonli professor o'qituvchilari qatori "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasini professor - o'qituvchilari ham onlayn darslarda faol ishtirok etdilar. Ayniqsa, UZREPORT kanali orqali Gidravlika fanidan jonli tarzda olib borilgan darslar ham o'z samarasini berdi. Olib borilgan ishlar natijasida "Gidromelioratsiya" fakultetining talabalari Jalilov Sirojiddin bosh sovrin 1-o'rinni, Turg'unova Xumora va Jo'raboev Ismoiljonlar esa faxrli 3-o'rinni sohibi bo'ldilar. Ushbu g'alaba bilan barcha institut jamoasini ayniqsa "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasining professor-o'qituvchilarini muborakbod etamiz!



TIQXMMI matbuot xizmati